



Samarqand viloyati statistika boshqarmasi

2019 yilning yanvar – may oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi
– **1599,1 mlrd. so'm**

Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi
– **1,5 %**

Kichik korxonalar va
mikrofirmalar ulushi
– **64,8 %**

Norasmiy sektor ulushi
– **33,7 %**


2019 yilning yanvar – may oylarida Samarqand viloyatida **1599,1** mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2018 yilning shu davriga nisbatan **105,4** foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi **24,5** mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **143,4** foizni tashkil qildi.

Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi **1035,7** mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **112,3** foizni tashkil qildi.

Norasmiy sektorda qurilish montaj ishlari hajmi **538,9** mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan **92,8** foizni tashkil etdi.

Qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning hajmi **1170,2** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **73,2** % ni, o'sish sur'ati **125,7** % ni tashkil etdi.



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **231,9** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **14,5** % ni, o'sish sur'ati **175,1** % ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **197,0** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **12,3** % ni, o'sish sur'ati **3,2** m. ni tashkil etdi.


Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo'ljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.





Iqtisodiy faoliyat turlarining mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari





Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **1416,6** mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining **88,6** foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan **3,8** bandga ko'paydi.



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **182,5** mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi **11,4** foizini tashkil qildi.






Hududlar kesimida qurilish ishlari

	Jami mlrd. so'm	o'tgan yilga nisbatan, (%)	jami hajmga nisbatan ulushi, (%)
Viloyat bo'yicha	1599,1	105,4	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	535,9	109,5	33,5
Kattaqo'rg'on sh.	35,4	107,2	2,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	134,2	104,6	8,4
Bulung'ur	39,1	101,9	2,4
Jomboy	80,1	105,8	5,0
Ishtixon	82,8	104,5	5,2
Kattaqo'rg'on	63,9	102,3	4,0
Qo'shrabot	52,2	99,9	3,3
Narpay	57,0	99,4	3,6
Nurobod	25,0	96,2	1,6
Payariq	95,6	103,7	6,0
Pastdarg'om	104,0	103,8	6,5
Paxtachi	46,6	103,5	2,9
Samarqand	75,4	105,0	4,7
Tayloq	75,5	103,5	4,7
Urgut	96,4	104,4	6,0



Hududlar kesimida qurilish ishlari

(mlrd. so'm)




Qurilish ishlari hajmini o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichda bajarilishi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi. Jumladan: Samarqand shahrida – **335,9** mlrd. so'm, Oqdaryo tumanida – **134,2** mlrd. so'm, Pastdarg'om tumanida – **104,0** mlrd. so'm, Urgut tumanida – **96,4** mlrd. so'm hamda Payariq tumanida – **95,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.






Hududlar kesimida qurilish ishlari (foiz hisobida)



Qurilish ishlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori darajadagi o'sish sur'atlari quyidagi hududlarda kuzatildi. Jumladan: Samarqand shahrida – **109,5** %, Kattaqo'rg'on shahrida – **107,2** %, Jomboy tumanida – **105,8** % va Samarqand tumanida – **105,0** % ni tashkil qildi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari (jami hajmga nisbatan foizda)



Samarqand viloyati statistika boshqarmasi

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

I.Raxmatov

Aloqa telefoni:

(66) 235-60-82